



LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF ENGLISH PROVERBS EXPRESSING THE LEXEMES “BOYLIK” (WEALTH)

Alisher Jo‘rayev¹

Termiz University of Economics and Service

DOI: 10.5281/zenodo.15682734

Article History	Abstract
Received: 15.05.2025 Accepted: 17.06.2025	This article is devoted to the linguoculturological analysis of the concept of "wealth" in the English language. The study analyzes the national and cultural characteristics of the concept of 'wealth' through lexical units, proverbs and phraseologisms.

Keywords: proverb, linguoculturology, wealth, language and culture, semantics, phraseologism, folk thinking.

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Master's student in the field of Foreign Language and Literature (English), Termiz University of Economics and Service, Uzbekistan

“BOYLIK” LEKSEMALARINI IFODALAGAN INGLIZ MAQOLLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

maqol, lingvokulturologiya, boylik, til va madaniyat, semantika, frazeologizm, xalq tafakkuri

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqola ingliz tilidagi “boylik” konseptining lingvokulturologik tahliliga bag‘ishlangan. Tadqiqotda leksik birliklar, maqollar va frazeologizmlar orqali ‘boylik’ tushunchasining milliy va madaniy xususiyatlari tahlil etilgan.

Ingliz va butun Yevropa davlatlarining xalq og‘zaki ijodi va aynan maqollarning tarqalishida, maqollar kitobi deb atalmish “Bible” ya’ni Biblyaning o‘rni katta. Kitob ingliz xalq maqollarini o‘zida jamlagan bo‘lib, aynan qadimgi davrdagi ajdodlar tomonidan aytilgan maqollar keltirilgan. Ko‘plab ingliz olimlari tomonidan maqolga quyidagicha izohlar keltiriladi. Mashhur ingliz folklorshunosi Mieder maqolni quyidagicha izohlaydi: “Maqollar keng miqyosdagi vaziyatlarda ishlatiladi va ulardan foydalanishning mutlaqo chegarasi yo‘q. Ulardan dalillarimizni kuchaytirishda, muayyan fikrlarimizni ifoda etishda, boshqa kishilarga ta’sir ko‘rsatish va mohirona tarzda ularni yo‘naltirishda, o‘z kamchiliklarimizni beritishda foydalanish mumkin” .

Jozef Reymond esa bu mavzuda shunday yozadi: “Maqollar nafaqat donolik, ohangdorlik va ritmik tuzilishga ega, balki inson fikrlarini ham o‘zida aks etadi” .

Sh.L.Arora o‘zining “The Perception of Proverbiality” asarida maqollarni qadim xalq tilidan yetib kelgan va xalqning ananaviy urf-odatlarini avlodlarga ko‘rsatuvchi timsol deya ta’riflaydi.

Bugungi kunda, maqollar ustida qizg‘in izlanishlar olib borilayotgan bir paytda, maqollarning har taraflama jihatlarini o‘rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Maqollarni qiyosiy jihatlarini o‘rganish asnosida ularning lingvokulturologik jihatlariga to‘xtalmay ilojimiz yo‘q. Bu orqali tadqiq etayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo‘lmish xalqning o‘ziga yarasha madaniyati va o‘ziga xos mentalitetini ko‘rsatishga harakat qilamiz.

Ingliz paremiologiya ilmining vakili Wolfgang Mieder esa maqolni quyidagicha ta’riflaydi. “Maqol qisqa, o‘zida donolik, haqiqat, axloq va xalqning metaforik uslubdagi an’anaviy qarashlarni o‘z ichiga olgan va avloddan-avlodga o‘tib keladigan umume’tirof etilgan gaplardir” . Ko‘pincha, “boylik”ka ijobiy tomondan qaraladi va moddiy-ma’naviy to‘kislikni anglatadi. “Boylik” tushunchasining bu jihati ingliz paremiyalarida ham o‘z aksini topgan. Endilikda, ingliz zabon millatning xalq maqollarida aks etgan “boylik” konseptini kashf etishga harakat qilamiz.

Ingliz tilida “boylikni” ijobiy deb ta’riflaydigan paremiyaning butun qatlami mavjud. Ularni ushbu konseptning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi ma’lum kichik guruhlarga

bo'lish mumkin. O'zbek tilida bo'lgani kabi, ingliz maqol dunyosida ham badavlat kishilarning har jihatdan imkoniyatlari ustun, boylik bu kuch-qudrat, har qanday yopiq eshiklarni ochuvchi kalit ekanligini aks ettiruvchi paremiyalar, boshqa paremiyalarga nisbatan ko'proq uchraydi. Masalan:

“A rich man's joke is always funny” – boyning xazili hamisha kulgili.

O'zbek tilidagi bu maqolga teng keluvchi paremiyalar: “Echkisi ko'pning so'z jo'p” (ma`qul), “Borning gapi o'ng, yo'qning gapi to'ng”. Bu maqollar orqali boy insonlar har doim qo'llab-quvvatlanadi, ularning har so'zi barcha o'rinlarda ustun ekanligi ta`kidlanmoqda.

“He who pays the piper, calls the tune” yoki “You pays your money and you takes your choice” – kim surnaychiga pul to'lasa, o'sha istagan navo yangrar. “Boyning ishi farmon bilan, yo'qning ishi armon bilan” o'zbek maqoli mana shu vaziyatni o'zbek madaniyai nuqta`i nazaridan tasvirlaydi .

“Money makes the mare go” – pulga biya ham yo'rg'alar. Teng keluvchi o'zbekcha variant: “Pulim, pulim bo'lsa kimlar bo'lmadi qulim?!”, “Puling bo'lsa hamma quling, tog'u tosh ham bo'lar yo'ling”¹⁰⁶.

“Money opens all doors” – pul barcha eshiklarni ochadi. Bu o'rinda pul va boylikning kuch-qudrati tasvirlanmoqda. O'zbek tilida esa “Hamma narsaning otasi – pul” maqolini shu mazmunda ishlatish mumkin .

“Wealth, Roll in” Tarjimasi: Boylikda dumalamoq. Bu maqolda boy bo'lgan inson yanada boyiydi, yaxshi hayoti yanada yaxshilanib boraveradi, deyiladi va

boylik yaxshi hayot bilan bog'lanadi. “Boyning xo'rozi ham tuxum qilar” o'zbek maqoli ham shu mzmunn kasb etadi .

“One law for the rich, and another for the poor”. Ma`nosi: boylar uchun bir qonun, kambag'allarga boshqasi. Bu maqolda ijtimoiy tengsizlik va uning asl manbai boylik degan g'oya aks etadi. Bu mazmundagi o'zbek maqollari soni talaygina. “Boy kiysa — qulluq bo'lsin! kambag'al kiysa— qayoqdan olding?”, “Boyning o'g'li kelsa — to'rga, kambag'alning o'g'li — go'rga” va boshqalar.

“The rich man spends his money, the poor man his strength” – boy pulini sarflasa, kambag'al kuchini. Aynan shu shakl va mazmundagi o'zbek maqoli ham mavjud: “Bordan — davlat, yo'qdan — mehnat” .

“A golden key opens every door” – oltin kalit har bir eshikni ochadi. Bu maqolning yana bir varianti: “Gold goes in at any gate except heaven's” – tilla jannatdan boshqa har qanday eshikni ochadi. Bu yerda oltin kalit deya pulga nisbat berilmoqda. O'zbek tilida bu o'rinda “Pul bo'lsa, changalda sho'rva” maqoli shu mazmuni bera oladi.

“Money makes the pot boil”, “Money makes a man”, “Money makes the world go around”, “Money is a power”, “God is always on the side of the big battalions” va boshqa ko'plab maqollar aynan shu g'oyani aks ettiradi.

“Beggars can't be choosers” – kambag'al tanlay olmaydi. O'zbek tilida bu vaziyatda “Kambag'alning bir to'ygani — Chala boyigani” maqoli ishlatiladi . Misol: “I was unemployed, and they offered me a job cleaning prison toilets. I didn't like the job, but I accepted it.

Beggars can't be choosers". O'zbek tilida esa "Kambag'al – topganda, boy — sog'inganda" maqoli shu ma`noga qisman yaqin.

"A rich man's wealth is his strong city, the poverty of the poor is their ruin". Bu maqolda boylar o'zining boyligini ularni muhofaza qiluvchi makon, havfsiz shahar deb hisoblashi, qashshoqlik esa, kambag'allar uchun halokat ekanligi tasvirlangan.

"A man without money is no man at all" – pulsiz odam odammas. Bu maqol orqali hurmat, qadr-qimmat pul va boylikka egalik bilan bog'liqligi ko'rsatiladi.

"It is no sin to be poor" – kambag'allik ayb emas, yoki "Poverty is no disgrace, but it is a great inconvenience" – kambag'allik ayb emas, lekin ulkan noqulaylik. "Kambag'al osh topsa, qo'ygani idish topmas", "Kambag'al tuxum topsa, ichidan sarig'ini topmas" o'zbek maqollarida ham ifoda etgan bu maqollar kambag'allik ayb ish bo'lmasa-da, u bilan insonga yashash mushkul ekanligi, yaxshi hayotni mo'maygina pul ta'minlashi nazarda tutiladi.

"There is no virtue that poverty destroys not" – kambag'allik barbod qilmas hech qanday yaxshilik yo'q. Odatda, boyluk yomonlik bilan assotsiatsiya hosil qilgan maqollar ko'p uchraydi. Ulardan farqli ravishda ushbu maqolda kambag'allik va ezgulik bir-biriga qarama-qarshi qo'yiladi. Biroq, bu bilan kambag'allik yomonlikka o'xshatilmaydi, balki kambag'allik shu qadar vayronakor kuchga egaki, hatto yaxshilikni ham barbod qilishga qodirligi aytiladi.

Bu mazmunda o'zbek tilida "Bedavlat bozorga borsa shum xabar keltirar" maqoli misol bo'la oladi.

"God help the rich man, let the poor man beg" – Xudo boyga yordam ber, kambag'al tilanchilik qilaversin yoki "God help the rich, the poor can look after themselves" – xudo boyga yordam ber, kambag'al o'z kunini o'zi ko'ra oladi. Bu maqolning o'zbekcha varianti sifatida "Boyning ko'zi nonda, kambag'alniki — imonda" maqoli keltiriladi.

"When poverty comes in the door love flies out at the window". Kambag'allik eshikdan kirsam, muhabbat derazadan qochadi, ma`nosidagi ushbu maqolda kambag'allik kelgan chog'da hatto muhabbat ham vafo qilmasligi nazarda tutiladi. Lekin o'zbek tilida bu holatning aksini quyidagi maqolda ko'rish mumkin: "Muhabbat boylikka boqmas". Bu maqolda o'zbek xalqida boyluk muhabbatdan kuchli va muhim emasligi ta'kidlanadi. Shu o'rinda bu ikki madaniyatning boyluk tog'risidagi qarashlarida farqlar ko'zga tashlanadi.

"In times of prosperity friends will be plenty, In times of adversity, not one in twenty" – "Moling borida — ana do'st, moling yo'g'ida — qani do'st?!", va

"Bedavlatlik bo'lgan so'ng, qarindoshlar g'ash bo'lar, badavlatlik bo'lgan so'ng, begonalar do'st bo'lar" o'zbek maqollari yuqoridagi maqolning mazmunini o'zida aks ettirgan. Ularda insonning mol-u dunyosi uni atrofiga ko'proq do'stlar turli manfaatlar va maqsadlar yo'lida to'planishi, kambag'al va g'arib holda esa barcha uni tark etishi ogohlantiriladi. Xuddi shu ma`nodagi quyidagi maqollarni ham misol tariqasida keltirish mumkin: "Pride in prosperity turns to misery in adversity", "Prosperity makes friends, and adversity tries them". Ya`ni, ishlaring yurishgan vaqtda do'sting ko'payadi lekin, ularning haqiqiyini farqlay olmaysan. Mutojligingda esa haqiqiy do'sting kim ekanligini, atrofingdagi insonlarning asl yuzini ko'rasan. Bu bilan boyluk insonga hurmat va obro' olib

kelgani bilan, buning hammasi ham haqqoniy va abadiy emasligi uqtirilmogda .

“Money Talks!” Pul gapiradi. Bu maqol faqat va'dalar yoki so'zlar bilan solishtirganda pul katta kuch va ta'sirga ega bo'lishi mumkinligini anglatadi. If you want them to let you into the club, give them some money, money talks. O'zbek tilida bunday o'rinlarda “Pul tilni biyron, dastni daroz qilar” yoki “Og'zi qiyshiq bo'lsa ham, boyning bolasi gapirsin” maqollaridan foydalaniladi. “Puli yo'qning tili yo'q” o'zbek maqoli ham antonimiya orqali xuddi shu mazmunni aks ettiradi.

“When money speaks, the truth keeps silent”. Bu maqolda pulning qudrati haqida yana so'z boradi. Uning kuchi shu darajadagi, hatto vaqti kelsa, haqiqatni ham ortga chekinishga majbur etadi, deyiladi bu maqolda. “Pul sayraganda, haqiqat til tishlaydi” o'zbek maqoli shu maqolga ham mazmunan, ham shaklan mos keladi .

“Money answers all things”. Ma'nosi: pul hamma narsaga labbay der. O'zbek maqollari orasida “Pul bo'lsa, changalda sho'rva” maqoliga teng keladi . Ingliz va o'zbek tilaridagi o'xshash maqollarda ham boylikka qarash xilma-xil ekani sezilib turadi. Ingliz dunyosida pul va boylikka ijobiy qarash ko'p uchraydi. O'zbek tilidagi bu kabi maqollarda esa boy bo'lishga targ'ib etishga nisbatan, boylik jamiyatda notenglikning sababchisi sifatida ko'rsatiladi.

“Money makes the world go round”. Pul butun dunyodagi har bir insonning kundalik hayotining muhim qismidir. Pul bo'lmasa, biz qiladigan yoki kerak bo'lgan ko'p narsalar biz uchun mavjud bo'lmaydi. “Pul dunyoni aylantiradi” degan maqol asosan pulning qanchalik muhimligini ko'rsatish uchun o'z-o'zidan ibora sifatida ishlatiladi.

“Money is the sinews of war” – pul urushning mushagi. “Proverbs, maqollar, пословицы” lug'atida “Pul zamburning nishini qaytarar” o'zbek maqoli ham xuddi shu vaziyatda ishlatilishi qayd etilgan . Biroq, bizning fikrimizcha, bu maqolda pul barcha nizo va urushlarni harakatlantiruvchi kuchga o'xshatilmoqda.

“Money makes the man” – pul odamni yaratadi. O'zbek maqoli bilan aytganda, “Puli borning yuzi bor”. “A man without money no man at all” ingliz maqolining antonimik varianti bo'lgan yuqoridagi maqol ham inson hayotidagi pulning ahamiyati kuchli ekanligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilidagi kabi ingliz maqollari orasida ham moddiy boyliklarning mavjudligi to'liq hayot uchun juda muhim, pul yo'ligi esa yomon, degan g'oya ko'pgina maqollarda uchraydi. Masalan:

“A heavy purse makes a light heart” – og'ir hamyon yurakni yengil qiladi. Bu moddiy “og'irlik” umuman hayotni osonlashtiradi. Shu o'rinda ingliz tilida maqollarida ham ma'nosiga ko'ra antonimiyaning mavjudligini ko'rish mumkin. “A light purse is a heavy curse” – yengil hamyon – og'ir la'nat, yoki “A light purse makes a heavy heart” – bo'sh hamyon yurakni og'ir qilar. “An empty purse fills the face with wrinkles” – bo'sh hamyon yuzni ajinga to'ldirar. O'zbek tilida shu ma'noni quyidagi maqollarda ko'rish mumkin: “Bu dunyoning xo'rliqi — kissangda pulning yo'q”, “Borga kunda bayram kunda to'y, yo'qqa kunda alam kunda o'y”, “Borga — bor dunyo, yo'qqa — tor dunyo”, Borga – bozor, yo'qqa –

mozor”.

Bundan tashqari, moddiy ne'matlarga ega bo'lish salbiy yoki halokatli narsa sifatida qabul qilinmaydi. Masalan: “Plenty is no plague” yoki “Abundance does not matter” – ko'p bo'lsa, falokat emas. Xuddi shu ma'noda: “Never too much of a good thing” yoki “There are never many good things”. Demak, ingliz tilida so'zlashuvchilar uchun hech qachon ko'p boylik bo'lmaydi va uning belgilangan maksimal hajmi yo'q.

Biroq, shunga qaramay, tilda antonimik ma'noga ega paremiyalar mavjud.

“A great fortune is a great slavery” yoki “Great fortune - great slavery”. Ya'ni, boylik insonni o'ziga bo'ysundiradi, uni erkinlikdan mahrum qiladi, boshqa muayyan harakatlarni amalga oshirishga to'sqinlik qilib, uning ustidan hukmronlik qiladi. Bundan tashqari, boylik qanchalik ko'p bo'lsa, unga qaramlik va bo'ysunish shunchalik ko'p bo'ladi. Buni “great” leksemasi tasdiqlaydi. Shu mavzuni davom ettiruvchi quyidagi misollarni ham ko'rib chiqsak:

“Much gold, much care”, “If you have more you must carry them”, “Rich in gold, rich in care” – moling ko'p bo'lsa, tashvishing ham ko'p bo'ladi, degan ma'noda yuqoridagi maqollar qo'llaniladi. O'zbek tilida esa “Arpa – bug'doy osh ekan, oltin – kumush tosh ekan” maqoli xuddi shu mazmunga ega.

“The best things in life are free”. Hayotda eng yaxshi narsalar bepul. Bu maqolda hayotda asli eng yaxshi va qadri narsalar pulga sotilmasligi, ular shunchaki insonda doimo mavjud va ularga egalik uchun boylikka ehtiyoj yo'qligi uqtiriladi.

“Wealth like want ruins many” – boylik muhtojlik kabidir, ko'pchilikni yo'q qiladi. Ushbu maqolda boylik asli qaramlikka o'xshatiladi. O'zbek tilida shu mazmuni “Ko'p boy bo'lgan bir surinar” maqolida ko'rish mumkin.

“Lend your money and lose your friend” – pul qarz bersang, do'stingni yo'qotasan. Bu o'rinda pulning vayronakor kuchi yana bir bor tasvirlanadi. U do'stdan do'stni ayirishi, pul insonni shu qadar yo'ldan ozdirishi ta'riflanadi.

“Money is the root of all evil”. Yovuzlikning ildizi – pul. Bu maqolning haqiqiy shakli “The love of money is the root of all evil”. U qisqarishga uchragan.

Unga ko'ra, aslida pul muammo emas, bu odamlar uni qanchalik yaxshi ko'rishlari va uni olish uchun nima qilishlari, bu muammo. Masalan: He betrayed his friends in their time of need, just so he could make a few dollars. Money is the root of all evil. “Boylik o'zingga dushman” o'zbek maqolida ham shu mazmuni topish mumkin.

Biroq, aynan shu maqolni inkor etgan boshqa maqolni ham ko'rish mumkin:

“Money is the root of all good”. Unga ko'ra, barcha yaxshi narsalarning asosi puldan iborat.

“Thief passes for a gentleman when stealing has made him rich, A” yoki “A thief passes for a gentleman when stealing has made him rich” – o'g'ri o'g'rilikdan boyib ketsa, oliyjanobga aylanadi. Bu maqolda oliyjanob qiyofali boylarning molu dunyosi asli o'g'rilik ortidan ekanligi aytiladi. Bu o'zbek tilida “Boylik, boylik tubi o'g'irlik” maqoliga to'g'ri keladi.

“Fair play's a jewel”. Tarjimasi: Sof o'yin — boylik. “To'g'rilik to'rga tortar, o'g'rilik — go'rga” o'zbek maqoliga mos keladi.

“Bad money drives out good”. Ma`nosi: Yomon pul yaxshilikdan ozdiradi.

“To'qlikdan chiqar sho'xlik”.

“The abundance of money ruins youth” – mo'may pul yoshlikni xarob qiladi. O'zbek tilida bu maqolga teng keluvchi maqol: “Yomon o'g'il molga o'rtoq, yaxshi o'g'il — jonga”.

“Muck and money go together”, “Gold is but muck”, “Where's there's muck, there's money”. Ma`nosi: pul va qabihlik birga yurar. Bu turkum maqollarda boylik yomonlikka qiyoslanadi. Ya`ni, qabihlik bor joyda boylik va boylik bor joyda qabihlik bor.

“Wealth is an enemy to health”, “When riches increase, the body decreases”, “A crown is no cure for the headache”. Manosi: boylik – sog'likning dushmani. Inson qanchalik boy bo'lmasin, sog'likni sotib olishga qodir emas.

“Empty purse that is full of other men's money, That is but an”. Aynan bo'sh hamyon o'zgarar puliga to'la bo'ladi. “Kambag'al saxiy bo'lar, boy — baxil”¹²¹,

“Yema, ichma, bo'l baxil. boy bo'lmasang men kafil” kabi o'zbek maqollari yuqoridagi maqolning mazmunini o'zida aks ettiradi¹²².

“Money is a good servant/slave, but a bad master”. Ko'proq pul topishga harakat qilish va oila kabi muhimroq narsalarni qo'ldan boy berish, xo'jayin o'z xizmatkori yoki qulini boshqarayotgani kabi pul bizni boshqarayotganini anglatadi. Poor Jenny, her husband is never home, he is always working. They have a nice house and car, but he is never around to enjoy them. It's true; money is a good servant but a bad master.

Ingiliz maqollari orasida ham o'zbek paremiologiyasida bo'lgani kabi boylikning o'tkinchi ekanligi eslatuvchi maqollar talaygina. Misol uchun: “He that marries for wealth, sells/loses his liberty”, “A great dowry is a bed full of brambles, “If you marry for money, you sell your freedom” – pul uchun oila qurgan, o'z erkini pullaydi. (“Boyga kelin bo'lguncha, kambag'alga qiz bo'l”)

“Money isn't everything”. Demak, pul yagona qadriyat emas va unga e'tibor qaratish kerak bo'lgan yagona narsa emas. Dunyoda sevgi va oila kabi muhimroq narsalar bor. I know you're very focused on your career, but don't work so hard that you lose sight of what's really important. Remember, money isn't everything. The millionaire John Smith died yesterday from a severe sickness that has no cure, going to show that money isn't everything.

“Line one's pockets, To” – Cho'ntagini to'ldirmoq ma`nosidagi bu maqolda halol yo'l bilan boyish mumkin emasligi, katta boylik faqat o'g'rilik va noto'g'ri yo'llardan keladi, degan fikr yotadi. O'zbek tilida bu maqolga “Boylik, boylik tubi — o'g'irlik” maqoli teng keladi¹²⁴.

“You can't take it with you” – o'zing bilan olib keta olmasan. Bu maqol o'lim haqida va inson dunyoni tark etar chog'ida, boyligini o'zi bilan olib keta olmasligini eslatadi. Why do you want to make more money? You have made plenty of money during your life, and besides, you can't take it with you. Ekv: “Dunyo yig'ib netarsan, bir kun tashlab ketarsan”.

“Today rich, tomorrow poor” – bugun boy, ertaga kambag‘al. Bu ingliz maqoli orqali, boyman deb beg‘amlikka berilmaslik, kuni kelib boylik insonni tar etishi, vafo qilmasligi uqtiriladi. “Sendan ham o‘tar bu boylik, mendan ham ketar bu yo‘qlik” yoki “Boylik — bir oylik” o‘zbek maqollarida ham na boylik, na qashshoqlik abadiy emasligi mazmuni aks etgan.

“Come, Easy/ easy go” – Yengil kelgan, yengil ketadi. Bu o‘zbek tilidagi Davlat qanday kelgan bo‘lsa, shunday ketadi maqoliga yaqin. Bizning madaniyatimizda ham pul, mol-dunyoning tez kelib, insonga vafo qilmay, uni tez tark etishi mavzusida boshqa maqollar ham mavjud: “Pul – qo‘lning kiri”, “Pul bo‘ldi – kul bo‘ldi”¹²⁶.

“Shrouds have no pockets” – “kafaning cho‘ntagi yo‘q” ma`nosida. Bu dunyoda qancha mol yig‘ib ham, uni kafanga solib u dunyoga olib ketish imkoni yo‘qligi tasvirlangan bu maqolni o‘zbek tilida ham variantlarini ko‘rish mumkin. Xususan, “Dunyo moli dunyoda qolar”.

“Early to bed, early to rise, makes a man healthy, wealthy, and wise”. Erta tongda uyg‘onish va erda yotish kishini boy, sog‘lom va dono qiladi. Steve says that going to bed early and getting a good night’s sleep is part of his success for being super productive during the day. Early to bed, early to rise, makes a man healthy, wealthy, and wise.

“Money doesn’t grow on trees”, (“No bees no honey, no work no money”, “All work and no play makes Jack filthy rich”) – pul daraxtda o‘smaydi yoki mehnatsiz boylik yo‘q. O‘zbek tilida esa bu o‘rinda “Mehnatning ko‘zini topgan, boylikning o‘zini topar”, “Sabr bilan mehnat qilgan boy bo‘lar” maqollari ishlatiladi. Bu odamlarga pulning qadr-qimmatini eslab qolishlarini eslatadi. Pul olish uchun mashaqqatli mehnat kerak, bu osonlik bilan kelmaydi. Stop asking for things you don’t need and don’t really want. Money doesn’t grow on trees.

Unfortunately the car costs too much, money doesn’t grow on trees you know.

“Of saving, comes having”. (“A penny saved is a penny earned”, “Little and often fills the purse”) – tejamkorlikdan yig‘iladi. “Toma-toma ko‘l bo‘lar, tiyinlardan so‘m bo‘lar”, “Bozori yaqin boyimas”, “Boylik ushoqdan yig‘ilar” o‘zbek maqollari ham shu mazmunga ega.

“A fool and his money are soon parted”. Inson agar topgan pulini aql bilan sarf etmasa, tez orada boridan ayriladi va kambag‘alikka yuz tutadi. Bu ko‘pincha birdaniga ko‘p boylikka erishib, uni qanday tasarruf etishni bilmay yana undan mahrum bo‘lgan holda ishlatiladi. Mazmuniga ko‘ra, bu maqol o‘zbek tilidagi “Hisobini bilmagan hamyonidan ayrilar” maqoliga yaqin.

Ingliz madaniyatida, o‘zbek xalqida bo‘lgani kabi nomoddiy ne‘matlarning qadriga katta e‘tibor beriladi, bu esa ushbu ikki madaniyatning o‘ziga xos o‘xshashliklarini yuzaga keltiradi.

“A good name is better than riches” (Varianti: “Name is better than riches, A good”). Ma`nosi: yaxshi nom har qanday boylikdan afzal. Ekvivalenti: “Yo noming chiqsin, yo — joning”, “Shovla ketsa ketsin, obro‘ ketmasin”, “Boy bo‘lay deb izzatingdan ayrilma”. Misol: Always do what you say you are going to do. A good name is better than riches.

“A friend in court is better than a penny in purse” –Bu maqolning asosiy ma'nosi do'stlik puldan qimmatroq yoki muhimroq, aslida haqiqiy boyluk do'stlik, ahillik ekanligini ifodalaydi. "Penni" ingliz millatiga tegishli pul shakli bo'lib, ingliz madaniyati vakillari do'stlikni pul birligi bilan solishtiradi va do'stlar

“penny”lardan yaxshiroq, do'st bo'lish haqiqiy boylukka tenglashtiriladi. Shuningdek, bu maqolning boshqa variantlari ham mavjud: “A friend in the market is better than money”, “He is rich enough who has true friends”. Bu mazmundagi o'zbek maqollariga quyidagilarni misol qilish mumkin: “Do'stlik — barcha boylukdan afzal”, “Yuz so'm puling bo'lguncha, yuzta og'ayning bo'lsin”. Bundan tashqari, “Wealth is not wealth, solidarity is wealth”. Bu maqolda haqiqiy boyluk bu pul emas, balki hamjihatlikdir, deyiladi. Bu o'rinda o'zbek xalqi “Boyluk boyluk emas, birlik boyluk” yoki “Boyluk boyluk emas, ahillik — boyluk”, “Davlat – og'iz birlikda”, “Hamjihatlik – davlat, Yolg'izlik – kulfat”kabi maqollardan foydalanadi.

“Time is money” – vaqt bu pul. Pul kabi qadri bo'lgan vaqtni behuda sarflamaslikka chaqiruvchi maqol. Misol: I'm sorry, but I have got to go now, I am late for a job and time is money! O'zbek tilida ham “Vaqting ketdi – naqding ketdi” maqoli yuqoridagi ingliz maqoliga ekvivalent bo'la oladi.

“Wit is better than wealth”. (Variantlari: “Better wit than wealth”, “Without wisdom, wealth is worthless”, “Wisdom is the wealth of the wise”, “Wisdom is a pearl of great price”) Ma'nosi: donolik boylukdan yaxshiroq. Ekv: “Dono – durdan a'lo”, “Aqldan ortiq boyluk yo'q”, “Aql – odamning oltin toji”, “Aqcha topguncha, aql top”, “Bilim bilan hikmat – oltindan qimmat”, “Bilimdan ortiq boyluk yo'q”, “Kallam bor – bor qop tillam bor”, “Davlat tugar, bilim tugamas”.

“Want of wit is worse than want of wealth”. Ma'nosi: aql istamoq boyluk istamoqdan ham battar. “Learning is better than hidden treasure” – ilm olish berkitilgan xazinadan afzal. Bu maqollarda ilm boylukdanda qimmatbaho deb e'tirof etiladi. “Ko'p moldan, oz aql yaxshi”, “Pul topguncha, aql top” o'zbek maqollari shu mazmunni o'zida saqlaydi.

“Wealth is nothing without health” (Variantlari: “Good health is above wealth”, “Health is better than wealth”, “Give me health and take my wealth”).

Ma'nosi: Yaxshi sog'lik boylukdan afzal, boyluk sog'liksiz hech narsa. Misol: “What can you do with all that money if you're deathly ill, though? That's why I think that health is definitely better than wealth. Money has never been that important to me. I know that health is better than wealth”. Bu mavzudagi o'zbek maqollari ham talaygina: “Salomatlik — tuman boyluk”, “Sog'liging – davlating”,

“Tani sog'lik – tuman boyluk”. Demak, har qaysi millat uchun sog'likdanda muhimroq narsa mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karasik V.I. Yazykovaya kontseptologiya. – M.: Gnosis, 2014.
2. Stepanov Yu.S. Konstanty: Slovar russkoy kultury. – M., 1997.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Akademiya, 2001.
4. Ashurova D.U., Mamajonov A.M. Til va madaniyat. – T.: Fan, 2010.

5. Abduazizov A.A. Tilshunoslikka kirish. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2005.
6. Cambridge Idioms Dictionary. – Cambridge University Press, 2015.
7. Uzbek Proverbs and Sayings. – T.: Akademnashr, 2017.
8. Kubryakova E.S. Kognitivnaya lingvistika. – M., 2004.
9. Popova Z.D., Sternin I.A. Ponyatie «koncept» v lingvisticheskix issledovaniyax. – Voronezh, 1999.
10. Demyankov V.Z. Poniatie i kontsept v nauchnom yazyke. – M., 2001.